

Ertaqlar - yaxshilikka yetaklar

EGRI va TO'G'RI



ZIYO NASHR

Qadim zamonda bir qishloqda soddadil yigit bor ekan. Unga To'g'riboy deb ism qo'ygan ekanlar. Uning bittagina ozg'in otidan bo'lak narsasi yo'q ekan. Bora-bora qishloqda ish topilmaydigan bo'lib, ahvoli og'irlashibdi. Shunda yigit ish qidirib katta shaharga jo'nab ketibdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Yo'lda unga piyoda ketayotgan yigit hamroh bo'libdi. Ikkisi suhbatlashib ketaveribdi.

– Xo'sh, yo'l bo'lsin? – debdi To'g'riboy.

– Mardikorlik qilish uchun uzoq shaharga yo'l oldim, – deb javob beribdi piyoda ketayotgan yigit.

– Isming nima?

– Egriboy. Seniki-chi?

– To'g'riboy. Ikkimizning nomimiz bir-biriga qofiyadosh ekan, kel, endi do'st bo'laylik, birga ishlab, birga yuraylik, – debdi To'g'riboy.


Ikkovlari shunday deb ahdlashibdilar.

Otliq yigit sherigining piyoda ketayotganiga rahmi kelib, unga otini beribdi. Egriboy egarga o'tirishi bilan otga bir qamchi urib, tezda ko'zdan g'oyib bo'libdi. To'g'riboy hayron bo'lib qolaveribdi. „Do'stman, deb dushmanning ishini qilib ketdi“, deb o'ylabdi u. Rangi o'chibdi, qoni qochibdi. Axiyri piyoda yo'l bosishga majbur bo'libdi. Kech kiribdi. Tik yo'ldan adashib, bir so'qmoqqa qayrilibdi. So'qmoq ham qalin bir o'rmonga kirib yo'qolgach, To'g'riboy qayoqqa borishini bilmay, sarosimaga tushibdi.

Kech kuz pallası ekan. Daraxtlarning yaproqlari to'kilgan, bargsiz qolgan qalin o'rmonning adog'i ko'rinmash. To'g'riboy hamon yo'l axtarib yuraveribdi. Kech kirib qorong'i tushibdi. Osmonda yulduzlar ham ko'rına boshlabdi. To'g'riboy yo'lda bir eski kulba yonidagi tandirga duch kelibdi. U o'ylabdi: „Qorong'i kechada o'rmonda yurish yaxshi emas, kechani shu tandirda yotib o'tkazayin“, deb uxlash uchun tandir ichiga kirib yotibdi.

Shu vaqtda o'rmonda arslon – podshoh, yo'lbars uning vaziri, bo'ri – karnaychi, qashqir – surnaychi, tulki esa hikoyachi bo'lgan ekan. Haligi tandir turgan joy ularning doim yig'iladigan joyi ekan. Birozdan keyin bir qashqir kelib, tandir atrofını aylanib, uvlabdi. Oradan sal o'tmay, o'rmondagi barcha hayvonlar shu yerga yig'ilibdi. Arslon podshoh o'rniga o'tirib, o'rmon ahlining majlisini boshlabdi.





Dastlab tulki soʻz olib oʻz hikoyasini boshlabdi:

– Yoronlar, shu oʻrmon orqasidagi togʻda bir gʻor bor, men oʻn yildan buyon oʻsha gʻorda yashayman. Odamlarning uyida nimaiki boʻlsa, mening uyimda ham bor. Oʻn yildan beri mol yigʻaman: gilam, palos, koʻrpa-toʻshak – hammasi bor menda. Yaxshi-yaxshi mallasliqlar ham bor.

Tandir ichida oʻtirgan Toʻgʻriboy oʻzicha oʻylabdi: „Yaxshi, tulkiboy-nikiga mehmonga borsam boʻlar ekan“.

Navbati kelgach, qashqir soʻz boshlabdi:


– Sening hikoyang qiziq emas, tulkiboy. Mana bu tepa ostida mening bir sichqonim bor, har kun tush vaqtida uni tomosha qilaman. Uning qirq bitta tillasi bor. Shularni inidan chiqarib oʻynaydi, keyin ularni oʻrtaga uyib, oʻzi tomosha qiladi, atrofida aylanadi, keyin yana iniga opkirib ketadi.

Endi ayiq hikoyasini eshiting:

– Bu ham qiziq emas, – deb soʻzga kirishibdi ayiq, – bizning shu oʻrmonda bir qayragʻoch bor, uning pastrogʻida ikki shoxchasi bor. Shu shoxchalarning yaproqlari barcha kasalliklarga davo. Mana shu shahardagi podshohning qizi yetti yildan buyon kasal. Podshoh jar soldirib: „Kimda-kim shu qizimni davolasa, uni oʻshanga beraman“, deydi. Davolay olmagan kishini oʻldiradi. Koʻp tabiblar qizni tuzatolmasdan, dorga osilib ketdilar. Agar oʻsha qayragʻoch yaprogʻini ezib, shu qizga ichirilsa, u darrov sogʻayar va shu ishni qilgan kishi podshoh qiziga uylanar edi.

Soʻngra boʻri hikoya boshlabdi:

– Yoronlar, bizning ham bir qiziq hikoyamiz bor. Shu oʻrmonning narigi chekkasida bir boyning qirq mingta qoʻyi bor. Men har




kuni ikki qo'yni yeyman. Meni ushlab uchun hamma hiylani ishlatdilar. Lekin hech iloj topolmadilar. Mana shu yaqin oradagi qir bo-shida turuvchi chol boboning bir iti bor. Agar shu itni sotib olsalar, u meni tilka-pora qilar edi.

Eng oxirida yo'lbars gap boshlabdi:

– Bo'ri aytgan boyning o'n ming yilqisi shu o'rmonning bir chek-kasida o'tlab yuradi. Men shundan har kuni bir otni tutib yeyman. Lekin shu otlarning ichida bir ola ayg'ir bor. Bir kishi ana shu ola ayg'irga minib, qo'lga qildan eshilgan sirtmoq olsa, bir qo'lida uzun xoda ushlab, bo'ynimga sirtmoq solib, meni o'lguncha kaltaklasa, shu yilqiga sira yaqinlashmas edim. Mening eng katta dushmanim shu ola ayg'ir ekanligini boy bilmaydi...

Yo'lbars hikoyasini tugatishi bilan tong ham yorishib qolibdi. Hamma hayvonlar uy-uyiga tarqab ketibdilar.

To'g'riboy tandirdan chiqib, tulkining makoniga boribdi. Qarasa, hamma narsa tap-tayyor, go'sht ham bor, yog' ham bor, guruch ham bor. Darhol qozonga yog' solib, olov yoqa boshlagan ekan, tog'dan tushib kelayotgan tulkini ko'rib qolibdi va o'zini panaga olibdi. Tulki uyga kelgach, qozonda yog' dog' bo'layotganini ko'rib, hayron bo'lib qolibdi. Shunda To'g'riboy tulkini tappa bosib, qafasga solibdi. Osh qilib yeb, qornini to'ydiribdi va yotib uxlabdi.



Ertasiga To'g'riboy qashqir aytgan tepalikni izlab ketibdi. Uni ham topib, yerni kovlab bir qancha tilla topib, beliga tugib olibdi. Keyin ayiq aytgan qayrag'ochning yaprog'idan olib xaltachasiga solib qo'yibdi.

So'ngra cho'pon tomonga yo'l solibdi. Cho'ponni topib, undan hol-ahvol so'rabdi.

Shunda cho'pon:

– Ahvol yomon, ancha vaqtdan beri bir bo'ri har kuni ikkitadan qo'yimni yeb ketadi. Hech ilojini topolmay, xo'jayindan baloga qolyapman – debdi.

To'g'riboy:

– Shu bo'ridan sizni qutqaraman, – debdi.

Cho'pon xo'jayindan qirqta qo'y olib berishga va'da qilibdi.


To'g'riboy haligi boboning itini sotib olib, cho'ponga beribdi.

Cho'pon bo'ri ofatidan qutulibdi va To'g'riboyga xo'jayinidan qirqta qo'y olib beribdi.

Shundan so'ng To'g'riboy yilqiboqarning oldiga boribdi. U bilan hol-ahvol so'rashgandan keyin:

– Shu kechasi ola ayg'irni egarlab, qildan eshilgan sirtmoqni, uch gaz xodani menga bering! – debdi.

To'g'riboy otni minib, yo'lbars keladigan so'qmoqni poylab turibdi. Birdan yo'lbars o'rmondan yugurib chiqib, o'zini otlar orasiga uribdi. To'g'riboy sirtmoqni rostlab turib, yo'lbarsning bo'yniga tashlabdi. O'rmonda yo'lbarsni aylantirib yurib, o'lguday savalabdi. Yo'lbars holdan ketib yiqilibdi. Yilqiboqar To'g'riboyning xizmati uchun ola ayg'irni beribdi. To'g'riboy ola ayg'irni minib shaharga yo'l olibdi. Shaharga borsa, bozorda jarchi shunday jar solayotgan ekan:



– Podshohning qizi yetti yildan buyon kasal, kimki uning dardiga davo topsa, podshoh o‘shanga qizini beradi!. Qizga yordam bera olmaganlarni esa jazolaydi.

To‘g‘riboy jarchining orqasidan podshoh huzuriga boribdi va qizini davolashga va‘da beribdi. Podshoh To‘g‘riboyni qizining huzuriga boshlab kiribdi. To‘g‘riboy yonidagi qarag‘ay yaprog‘ini ezib qizga ichiribdi. Qiz uch kun deganda sog‘ayib oyoqqa turib ketibdi. Podshoh va‘dasida turib qizini To‘g‘riboyga nikohlab beribdi.

Podshoh To‘g‘riboydan:

– Endi sizni qaysi shaharga hokim qilib tayinlay? – deb so‘rabdi.

To‘g‘riboy:

– Menga hokimlik kerak emas. O‘rmon etagidagi tog‘ ustiga bir uy solib bersangiz bas. Men o‘z mehnatim bilan kun kechiraman, – debdi.

Podshoh uning aytganini qilibdi. To‘g‘riboy malika bilan o‘z uyida yashay boshlabdi. Kunlardan bir kun tush vaqtida otini olib qochgan hamrohi Egriboyga duch kelibdi. Uni chaqirib hol-ahvol so‘rab, uyiga mehmonga taklif qilibdi va yaxshilab ziyofat qilibdi.



Egriboy:

– Do‘stim, bunday baland joyga qanday qilib imorat solding? Uyli-joyli bo‘libsan, bularni qayerdan topding? Birovning moliga xiyonat qilgan kishining biri ikki bo‘lmas ekan. Sening otingni olib qochib, qayerga borsam, ishim chappasidan ketdi. O‘shandan beri bir marta ham qornim nonga to‘yganini bilmayman, – debdi.

To‘g‘riboy:

– Mana bu o‘rmon ichida bir tandir bor. O‘sha tandir ichida bir kecha yotib, shu narsalarga erishdim, – degan ekan, Egriboy:

– Sadag‘ang bo‘lay, menga ham ko‘rsatib qo‘y, men ham o‘sha tandirda bir kecha yotib chiqay, – debdi.

To‘g‘riboy uni boshlab borib, tandirni ko‘rsatibdi. Egriboy do‘sti ko‘rsatgan yo‘ldan borib, eski tandirni topib, tandir ichiga kirib yotibdi.


O‘rmon hayvonlari yana yig‘ilishibdi.

Arslon podshoh:

– Hikoya so‘zlagan do‘stim tulki qayerda? – deb so‘rabdi.

Qashqir o‘rnidan turib shunday debdi:

– Hikoyasi qursin: o‘tkan safar hikoyasining kasofati bilan siz tulki do‘stingizdan, men tilla tangalari bor sichqonimdan ayrildim.



Uning ortidan ayiq soʻz olib:

– Qayragʻochimizning yaproqlarini ham olib ketibdilar, – debdi.

Navbat boʻriga kelganda, podshohga qarab debdi:

– Men esa kundalik luqmamdan ajradim, choʻpon men aytgan itni sotib oldi, it esa tilka-poramni chiqardi.

Yoʻlbars ham:

– Bir yigit qora aygʻirni egallab rosa taʼzirimni berdi, – deb hasrat qilibdi. – Kaltak zarbidan aʼzoyi badanim shishib ketdi.

Arslon podshoh qovogʻini solgancha:

– Kim chaqimchi boʻlsa, tutib jazolang, – deb buyuribdi.


Qashqir tustovuqdan koʻribdi.

Tustovuq:

– Chaqimchi tandirda, – deb uchib ketibdi.

Hamma hayvonlar birdaniga tandir oldiga yugurishib, uning ichida berkinib yotgan Egriboyni tutib olishibdi va „Chaqimchining jazosi – shu!“ deb uni tilka-pora qilib tashlashibdi.

Shunday qilib, Toʻgʻriboy toʻgʻriligidan murod-maqsadiga yetibdi. Egriboy esa egriligidan jazosini tortibdi.



E 83 **Egri va To'g'ri.** [Matn]: ertak. / – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022. – 16 b.

ISBN 978-9943-6829-1-7

UO'K: 821.512.133-343.4
KBK 83.8

Ertaklar – yaxshilikka yetaklar

EGRI VA TO'G'RI

Ertak

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Muharrir
Badiiy muharrir
Musahhih
Sahifalovchi

Abdurahmon Jo'rayev
Nasiba Ergasheva
Malika Kamolova
Surayyo Sunnatullayeva

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
30.08.2022 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 1/16.
Ofset qog'ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 0,10. Adadi 30 000. Shartnoma № 192–20
Buyurtma raqami

„Ziyo nashr“
Mas'uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

Ertaklar - yaxshilikka yetaklar

EGRI va TO'G'RI



ZIYO NASHR



fb.com/ziyo.nashr



ziyonashr@mail.ru



UcharGilam
ONLINE DO'KON



YANGI

KITOBLARIMIZNI
INTERNET ORQALI

ONLAYN

XARID

QILISH UCHUN

QR-KODNI
SKANER QILING.

ISBN 978-9943-6829-1-7



9 789943 682917